ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

ANIQ VA TABIIY FANLAR SERIYASI

Matematika, Mexanika, Informatika
Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya

№ 3/2 (139)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 3-son (2-seriya)(139) ANIQ VA TABIY FANLAR SERIYASI

Matematika, Mexanika, Informatika, Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

ANIQ FANLAR

SH.A.ALIMOV - O‘zFA akademigi
S.N.LAKAYEV - O‘zFA akademigi (SamDU)
M.M.MIRSAIDOV - O‘zFA akademigi
A.S.SOLEEV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
I.A.IKROMOV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
B.X.XO‘JAYAROV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
A.G.YAGOLA - f.-m.f.d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
I.I.JUMANOV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
X.X.XUDOYNAZAROV - t.f.d., professor (SamDU)
ALBERTO DEL BIMBO - Florensiya universiteti professori, Italiya
L.SABIROV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
A.JUMABOYEV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
N.N.NIZAMOV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
O.Q.QUVONDIQOV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
I.A.RAXMATULLAYEV - f.-m.f.d., professor
A.SH.YARMUXAMEDOV - f.-m.f.n., (SamDU)
X.S.XAYDAROV - f.-m.f.n., dotsent (SamDU)

TABIY FANLAR

M.X.ASHUROV - O‘zFA akademigi
N.B. FERAPONTOV - k.f .d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
SH. M. TUGIZOV - professor, Koliforniya universiteti, AQSh
H. I. AKBAROV - k.f.d., professor (O'zMU)
E. A. ABDURAXMONOV - k.f.d., professor (SamDU)
N. K. MUXAMADIYEV - k.f.d., professor (SamDU)
L. A. BULAVIN - Kiev milliy universiteti professori, Ukraina
X. Q. XAYDAROV - b.f.d., professor (SamDU)
Z. I. IZZATULLAYEV - b.f.d., professor (SamDU)
Sh. T. XOLIQULOV - g.f.d., professor (SamDU)
S. B. ABBASOV - g.f.d., professor (SamDU)
Q. S. YARASHEV - g.f.d., professor (SamDU)
GUN-SIK PARK - Seul univeriteti professori, Koreya
D.B.XURSANOV - g.f.f.d., dotsent (SamDU)
M. S. QUZIYEV - b.f.f.d., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA	
Кулжанов У.Н., Адилов А.А. *Спектралные свойства одночастичного оператора шредингера с контактным потенциалом*……..	3-7
Eshbekov R. *The cauchy problem for the modified korteweg-de vries equation with finite density in the class of periodic functions*……..	8-16
Abdurakhmonov B., Zaripov O., Teshayeva M. *Lagranj ko`paytuvchilari yordamida tengsizliklarni isbotlash*……	17-21
Umirzoqova I., Boboxonova G. *Oshkormas funksiya egriligi va kvadratik formalari*……..	22-26
Qurbonov H.G‘., Rustamov M.K., Gafurova D.A., Temiron N.N., Toshpulatova M.Sh. *Synthesis and properties of difficult combustion material based on modified polyacrylonitrile*……	27-32
Холиков Д.Ш., Худайбердиев З.Б., Исмоилов Х.Ф. *Упрощение нелинейного уравнения крутильных колебаний круглого конического слоя*……	33-38
Kamoliddinov D.U. *Density and regular distribution*……	39-43
Kuliev K., Eshimova M., Turaqulov T. *A new method for norm of a hardy-volterra operator*……	44-50
Kuziev B.N. *A comparative study on feature selection methods in QSAR*……..	51-55
Мардонов Ж.А. *Задача коши для неоднородного лапласова поля*……	56-61
Нуритдинов И., У.Эсанов З., Саидахмедов К.Х., Мажидов Х.М. *Преобразовании Dy1 центров в Dy2 центры в кристаллах* Dy_2SiO_5……	62-66
Akhmadova M.O. *The number of eigenvalues of the discrete schrödinger operator*……	67-71
Курбаниязов А.А., Сырлыбекқызы С., Раманкулов Ш. Ж., Аймбетова И.О., Ещанова Т.Д. *Новые данные высокого временного разрешения о морских и их изменчивости в зависимости от климатических условий*……	72-77
Ikromov I.A., Safarov A.R., Khudoyberdiev D. *Invariant estimates for generalized oscillatory integrals with polynomial phase*……	78-86
Urazbayev A.K. *Amudaryo hozirgi deltasidagi yer usti suv oqimlarining geografik strukturalari*……	87-91
Komilova N.K., Karshibayeva L.K. *Iqlim o‘zgarishlari va aholi kasalliklarining hududiy tarkibi (Jizzax va Sirdaryo viloyatlari misolida)*……	92-99
Нуритдинов И., Эсанов З.У., Саидахмедов К.Х., Ирисов Ш. *Влияние ионизирующего излучения на спектрально-люминесцентные свойства органических сцинтилляторов ups-923a*……	100-104
Alimkulov N.R. *Antropogen landshaftlarni tadqiq etish asosida landshaft-ekologik sharoit tushunchasining shakllanishi*……	105-113
Кувандиков О.К., Усаров У.Т. *Электрические, гальваномагнитные свойства редкого металла при различных температурах*	114-125
Komilova N.K., Ravshanov A.X. *Global iqlim o‘zgarishlari sharoitida O‘zbekistonda yuqumli-parazitar kasalliklar tarqalishining hududiy jihatlari*……	126-132

Рахматуллаев И.А., Ботиров Х.З., Чернега Н.В., Хайдаров Х.С. *Двухфотонно-возбуждаемая люминесценция в полициклических ароматических соединениях.....*	133-138
Anarova Sh.A., Jabbarov J.S., Rustamov A.A. Kattalashtirish masshtabiga bog'liq bo'lmagan fraktal o'lchovlarni geometrik modellashtirish…….	138-142
Nurmuhamedova D.K., Kutlieva G.J., Sohibnazarova X.A., Zairova X.T. *Mahalliy sut achituvchi bakteriyalarning antimikrob va bakteriosinogen faolligini tadqiq etish …….*	143-148
Тайланов Н.А., Уринов С.Х. *Численное моделирование уравнения гросса-питаевского.....*	149-159

UDK: 551.56:616.99(575.1) **DOI: https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v3.139.2.2265**

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHLARI SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA YUQUMLI-PARAZITAR KASALLIKLAR TARQALISHINING HUDUDIY JIHATLARI

N.K.Komilova[1], A.X.Ravshanov[2]
O‘zbekiston Milliy universiteti
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
ravshanov1401@mail.ru, ni.komilova@nuu.uz

Annotatsiyasi. Ushbu maqolada yuqumli-parazitar kasalliklar orasida ichak infeksiyalarininng (ich terlama, paratif, salmonellyoz, dizenteriya) tahliliga alohida e’tibor berilgan. Yuqumli-parazitar kasalliklar mamlakatimizda 2000-yilda har 100 000 aholiga 1400,6 kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu raqam 2076,6 kishiga ortgan. Ushbu kasalliklarning yuqish ehtimolligi boshqa yuqumli kasalliklarga qaraganda ancha yuqori turadi. Mazkur xastalikning ham boshqa kasalliklar singari hududiy tarkibi ancha keng areallarni egallaydi.

Kalit so‘zlar: yuqumli paratizar kasalliklar, kasalliklarning tabiiy o‘chog‘i, tibbiy-ekologik vaziyat, nafas olish tizimi, ichimlik suvi sifati, mikroiqlim holati

Региональные аспекты распространения инфекционно-паразитарных заболеваний в Узбекистане в условиях глобального изменения климата

Аннотация. В данной статье особое внимание уделено анализу кишечных инфекций (потливости, паратифа, сальмонеллеза, дизентерии) среди инфекционных и паразитарных заболеваний. Инфекционно-паразитарные заболевания в нашей стране составляли 1400,6 человек на 100 000 населения в 2000 году, а к 2021 году эта цифра увеличилась до 2076,6 человек. Вероятность передачи этих заболеваний намного выше, чем других инфекционных заболеваний. Территориальная структура этого заболевания, как и других болезней, охватывает широкий ареал.

Ключевые слова: инфекционные паразитарные болезни, природный очаг болезней, медико-экологическая обстановка, система дыхания, качество питьевой воды, микроклимат.

Regional aspects of the distribution of infectious and parasitic diseases in uzbekistan under conditions of global climate change

Annotation. In this article, special attention is paid to the analysis of intestinal infections (sweating, paratyphoid, salmonellosis, dysentery) among infectious and parasitic diseases. Infectious and parasitic diseases in our country amounted to 1400.6 people per 100,000 population in 2000, and by 2021 this figure has increased to 2076.6 people. The likelihood of transmission of these diseases is much higher than other infectious diseases. The territorial structure of this disease, like other diseases, covers a wide area.

Keywords: infectious parasitic diseases, natural focus of diseases, medical and environmental situation, respiratory system, drinking water quality, microclimate.

Kirish. Kasalliklarning tabiiy o‘chog‘i - bu ma’lum bir landshaftning shunday bir hududiki - bu yerda issiq qonli umurtqali hayvonlar, qo‘zg‘atuvchi va tashuvchi mavjud bo‘lib, qulay ekologik omillar ta’sirida patologik holat shakllanadi. Tabiiy o‘choqlar insonlarga bog‘liq bo‘lmagan ravishda, ulardan mustaqil holda mavjud.

Ko‘pgina kasalliklarning o‘choqlari muayyan hududlarga insonlar joylashishlaridan ancha oldindan mavjud bo‘lgan. Insonlar ushbu o‘choqqa kirgandagina ularda kasallik vujudga keladi. U kasallikni kasal hayvon hujum qilganda yoki kasallik tashuvchisi bilan aloqada bo‘lganda yuqtirib oladi.

Tabiiy o‘choq hosil qiluvchi transmissiv kasalliklar - bu yovvoyi hayvonlar kasalligi bo‘lib, ular endemikligi bilan ajralib turadi. Chunki ular ma’lum landshaftlardagina mavjud bo‘ladi. Shuning uchun tabiiy o‘choq kasalliklar- kasallikning aniq mavsumiyligi bilan tavsiflanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Tabiiy o‘choqli infeksiyalar - hayvonlardan odamga yuqadi va ularning patogenlari tabiiy o‘choqlarda mavjud. Tabiiy o‘choqli infeksiyalar - patogenlarning uzoq vaqt davomida tashqi muhitda saqlanish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Rus shifokori S.S.Andreevskiy 1788-yilda G‘arbiy Sibir provinsiyalarida ushbu infeksiyaning katta epidemiyasini “Sibir yarasihaqida” asarida tasvirlab bergan. Kasallikning qo‘zg‘atuvchisi deyarli bir vaqtning o‘zida 1849-1850 yillarda bir vaqtning o‘zida uchta tadqiqotchi: A. Pollender, F. Brauell va K. Daven tomonidan tasvirlangan. 1876-yilda R.Kox uni sof madaniyatda ajratib oldi [3]. Odam uchun patogen bo‘lgan barcha bakteriyalar orasida kuydirgi qo‘zg‘atuvchisi birinchi bo‘lib topilgan[2].

Tahlil va natijalar. Tabiiy o‘choqli infektsiyalarga gemorragik isitma, tulyaremiya, leptospiroz, listerioz, iersinioz, o‘lat, Ku va Lassa isitmasi, kana entsefaliti, quturish va boshqalar kiradi. Bu infeksiyalarning asosiy manbai tabiatda yashovchi yovvoyi hayvonlar, shuningdek turar-joy va xo‘jalik binolarida yashovchi sichqonlar, kalamushlar va boshqa kemiruvchilar hisoblanadi. Bunday kasalliklardan biri - gemorragik isitma sanaladi (1-jadval).

Kuydirgi (yunoncha ἄnthrál - “ko‘mir”) - Bacillus anthracis bakteriyasi keltirib chiqaradigan qishloq xo‘jaligi va yovvoyi hayvonlarning, shuningdek, odamlarning o‘ta xavfli yuqumli kasalligi. Qadim zamonlardan beri “muqaddas olov”, “fors otashi” va hokazo nomlar bilan ma’lum bo‘lgan kuydirgi kasalligi antik va sharq yozuvchi va olimlarining asarlarida qayta-qayta tilga olingan [2. Ushbu kasallikning batafsil tavsifi 1766-yilda fransuz shifokori Moran tomonidan berilgan. Inqilobdan oldin Rossiyaning Sibir hududida keng tarqalganligi sababli, bu kasallik “sibir yarasi” deb atalgan.

O‘zbekistonda aholining tabiiy o‘choqli va zooantropoz infeksiyalar bilan kasallanish ko‘rsatkichlari tahlil etilganda ularning ayrimlarini so‘nggi o‘n yil davomida birmuncha ortganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, kuydirgi kasalliklari dinamikasida bu hol yaqqol ko‘zga tashlanadi (1-jadval, 1-rasm).

1-jadval

Tabiiy o‘choqli va zooantropoz infeksiyalar (jami holat)

Kasallik turi	**2010**	**2012**	**2014**	**2016**	**2018**	**2020**
Kuydirgi	-	3	25	17	14	25
Brutsellyoz	454	362	702	844	778	418
Tulyaremiya	-	-	-	-	-	-
Gemorragik isitmalar	3	34	12	15	29	6

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

Umuman olganda, mamlakatimizda sanitariya-epidemiologiya markazlari, qolaversa, barcha tibbiy muassasalarning harakati tufayli mazkur kasalliklar yil sayin biroz bo‘lsada kamaygan. Difteriya (bug‘ma kasalligi ham yuqumli-parazitar kasalliklar orasida muhim o‘rin tutadi. 1996-yilda ushbu kasallikka chalinganlar har 100 ming aholiga hisoblaganda 0,7 kishiga teng bo‘lgan, 2000-yilda 0,2 kishiga, 2005-2020 yillar davomida kasallik kuzatilmaydi (2-jadval).

Aholining koklyush (ko‘k yo‘tal) bilan kasallanish holati borgan sari kamayib bormoqda. Manbalarda qayd etilishicha, ushbu kasallik asrlar davomida O‘rta Osiyo hududida juda keng tarqalgan. Tibbiy nazorat qanchalik kuchaymasin bugungi kunda ham mazkur xastalik uchrab turadi.

2020-yilda ko‘k yo‘tal tarqalgan mintaqalar Toshkent shahri va Toshkent viloyati hamda Qashqadaryo viloyati hisoblanadi. Yuqumli kasalliklar tarkibiga kiruvchi qizamiq ham, tibbiy emlash muolajalariga qaramay, mamlakatimizda hanuzgacha ko‘p uchraydi. 1996-yilda har 100 ming aholiga 1,0 kishini tashkil qilgan holda, 2009-yilda bu raqam 0,27 kishiga kamaygan.

Ushbu kasallikning hududiy jihatlariga e’tibor bersak, uning Toshkent shahri, Farg‘ona, Toshkent, Jizzax viloyatlarida uning salmog‘i biroz yuqoriroq ekanligiga guvoh bo‘lamiz.



1-rasm. Aholining kuydirgi bilan kasallanishi

2-jadval

Aholining ayrim yuqumli kasalliklarga chalinishi

(birinchi marotaba ro‘yxatga olinganlar soni)

	100 000 aholiga			
	2005	***2010***	***2015***	***2020***
Havo-tomchi infeksiyalar				
Bo‘g‘ma	-	-	-	-
Ko‘kyo‘tal	0,5	0,1	0,3	0,1
Qizamiq	**2,8**	**0,4**	**0,0**	**12,6**
Qizilcha	1,7	-	-	-
Skarlatina	3,5	1,6	1,7	2,5
Epidemik parotit	6,8	5,0	1,8	0,3
Suvchechak	15,5	14,7	17,7	7,5
Meningokokkli infeksiya	0,2	0,1	0,1	0,0
Yuqori nafas olish yo‘llari o‘tkir infektsiyalari	2267,7	1160,6	1 174,0	1 263,5
Gripp	**5,6**	**3,5**	**1,6**	**12,7**

Jadval O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda aholi orasida ayrim kasallik turlari ortib bormoqda. Masalan, mamlakatda ayniqsa tuberkulyoz (sil) xastaligining ko‘payib borayotganligi sir emas.

Avvalroq qayd qilganimizdek, bu kasallik, odatda, iqlimi namgarchil mamlakatlar uchun o‘ta xosdir. Yuqumli surunkali kasallik hisoblanadigan sil (tuberkulyoz) turli a’zolar, xususan, o‘pkada o‘ziga xos yallig‘li o‘zgarishlar ro‘y berishi bilan tavsiflanadi.

Tibbiyotda erishilgan yutuqlar ta’sirida mazkur kasallikka qarshi kurashishning samarali usullari yaratildi. Natijada sil bilan kasallanish darajasi ancha pasaydi (3-jadval). Yuqoridagi holat O’zbekiston Respublikasi hamda uning viloyatlariga ham xos bo‘lib, uni aholining faol sil kasalligiga chalinishi dinamikasi ko‘rsatkichlaridan ham ko‘rish mumkin. Mustaqillik yillari statistik ma’lumotlari taqqoslanib ko‘rilganda 2000 yil kasallanishning eng yuqori darajadi kuzatilganligidan dalolat beradi (har 100 ming kishi hisobida 65,5). So‘nggi yigirma yilda sil bilan og‘riganlar soni deyarli ikki barobarga kamaydi (31,8). Respublikamiz ma’muriy birliklari orasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi (57,2), Samarqand viloyati (39,5) yuqori, Qashqadaryo (21,3), Surxondaryo (24,7) viloyatlarida esa past kasallanish hisobga olingan[4,5].

Sil kasalligi kishilarga juda qadimdan ma’lum bo‘lgan. Kasallik belgilari Gippokrat, Ibn Sino asarlarida ham ta’riflab o‘tilgan. Uning yer sharida eng ko‘p tarqalgan kasallik ekanligi statistik ma’lumotlarda ko‘rsatilgan. XX asr boshlarida Yevropada har yili sil kasalligiga chalinish oqibatida 1 mln dan ortiqroq kishi vafot etar edi.

Aholining moddiy farovonligi va gigienik shart-sharoitlarining yaxshilanishi, tibbiyot fanning muvaffaqiyatlari tufayli bu kasallik birmuncha kamaydi. Biroq, hozirgi kunda ham jahonning deyarli barcha mamlakatlari sog‘liqni saqlash tizimidagi silga qarshi kurash hamon eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda (4-jadval).

Shu o‘rinda faqatgina nafas olish a’zolarida uchraydigan tuberkulyozni ko‘rib chiqish e’tiborga loyiqdir. Hududlar aholisining sil bilan kasallanishining 1991-2020 yillar oralig‘idagi o‘zgarishlar ayniqsa mintaqalar miqyosida ancha ko‘zga tashlanarli holatda. Shu bois, mintaqalar epidemiologik vaziyatini yaxshilash borasida chora-tadbirlar tizimini yanada kuchaytirish, joylarda sanitariya-epidemiologiya markazlari faoliyatini tubdan yaxshilash zarur.

3-jadval

Aholining faol sil kasalligiga chalinishi dinamikasi

Hududlar	**1991**	**1995**	**2000**	**2010**	**2020**
O`zbekiston Respublikasi	46,0	44,0	65,5	60,9	31,8
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	97,3	78,7	129,0	121,2	57,2
Viloyatlar					
Andijon	47,9	45,9	70,2	58,7	30,0
Buxoro	64,6	48,4	63,0	45,1	26,9
Jizzax	54,2	48,3	61,2	69,6	34,2
Qashqadaryo	41,6	40,9	59,7	58,7	21,3
Navoiy	-	48,6	70,2	65,2	30,7
Namangan	29,6	35,3	59,2	64,5	28,6
Samarqand	46,5	34,8	45,6	54,2	39,5
Surxondaryo	40,2	41,6	59,3	42,8	24,7
Sirdaryo	49,7	55,3	68,9	59,0	34,9

Toshkent	37,8	33,8	59,0	66,6	35,3
Farg‘ona	50,6	36,9	55,4	49,5	26,9
Xorazm	43,9	41,5	55,9	48,0	30,0
Toshkent sh.	37,1	53,4	84,2	68,8	34,3

(har 100 ming kishi hisobida)

Jadval O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi mazkur kasallikka chalinganlar bo‘yicha mamlakatimizda juda yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda. Bolalar (0-14 yosh) orasida uchrovchi tuberkulyoz kasalligining salmog‘iga ko‘ra ham ushbu mintaqa respublikamizda yetakchi o‘rin tutadi. Aytish o‘rinliki, Qoraqalpog‘iston Respublikasining geografik o‘rni bugungi kunda ekologik jihatdan mamlakatimizning eng tang, nochor mintaqasi bo‘lib, bu hol uning hududida nozogeografik vaziyatni yanada keskinlashtiradi.

Hozirda mazkur hudud tug‘ma nuqsonlar, siydik-ayirish, nafas olish tizimi kasalliklari bilan bir qatorda xilma xil yuqumli kasalliklarning ham o‘chog‘i bo‘lib qolmoqda. Buxoro, Samarqand viloyatlarida esa bunday kasallik bilan kasallanish ancha kam.

Ushbu kasallikka chalinganlik natijalari ayrim mamlakatlar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanganda, quyidagi fikrlarni bildirish mumkin: Rossiyada 1992-yilda tuberkulyoz bilan kasallanish har 100 ming kishiga 42,3 kishi, 2020-yilda esa 44,9 kishiga yetgan; respublikamizda bu ko‘rsatkich 1991-yilda 46,0 va 2020-yilda 31,8 kishini tashkil etdi.

4-jadval

Sil kasalligi bo‘yicha o‘lim koeffisienti (100 000 aholiga nisbatan)

	2010	**2015**	**2020**	**2021**
O‘zbekiston Respublikasi	**7,6**	**5,7**	**2,4**	**1,4**
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22,9	9,3	2,8	1,8
viloyatlar:				
Andijon	5,1	3,7	2,1	1,1
Buxoro	4,1	2,9	1,1	0,6
Jizzax	4,7	4,8	3,1	1,8
Qashqadaryo	2,6	2,2	1,1	0,9
Navoiy	3,0	4,8	2,5	1,6
Namangan	3,9	3,1	1,0	0,6
Samarqand	2,8	3,7	2,2	1,2
Surxondaryo	5,1	2,0	1,2	0,4
Sirdaryo	9,0	13,7	0,8	0,5
Toshkent	19,5	14,5	4,6	3,4
Farg'ona	6,0	3,2	1,3	0,8
Xorazm	3,6	3,8	0,9	0,7
Toshkent shahri	14,5	14,3	7,8	4,1

Jadval O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

Sil kasalligi Rossiyadagi eng o‘tkir tibbiy va ijtimoiy muammolardan biridir. 2018-yil oxirida Rossiyada silga qarshi dispanserlarda ro‘yxatga olingan 149 mingdan ortiq odam bor edi; 2018-yilda 65 000 kishiga birinchi marta kasallik tashxisi qo‘yilgan. Rossiyada sil kasalligining eng yuqori darajasi Chukotkada: 2021-yilda 100 000 aholiga 147,4. Bu respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan qariyb besh baravar yuqori – har 100 ming kishiga 30,8. Ikkinchi o‘rinda Tuva: 100 000 aholiga 122,6 holat. Uchinchidan - Kemerovo viloyati: 70,3.

Ma’lumotlarga binoan, Rossiya Federatsiyasidagi ayrim respublikalarda, masalan, Yoqutistonda kasallanganlik ko‘rsatkichlari o‘rtacha mamlakat darajasiga nisbatan 1,2-1,5 marta yuqori. Shuningdek, qamoqxona va ahloq tuzatish hududlari joylashgan rayonlarda ushbu kasallik yanada ko‘proq uchraydi.

Respublikamizda keyingi yillarda zahm va so‘zak (siflis, gonoreya) kasalliklarining ham ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Ushbu xastaliklar bevosita, yuqumli-parazitar kasalliklar turkumiga kirmaydi, u alohida tanosil kasalliklar deb nomlanuvchi guruhga mansub. Mazkur kasallik kichik guruhi tarkibiga kiruvchi xastaliklar (zahm, so‘zak, trixomonoz, yumshoq shankr) faqatgina jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar bo‘lib, yuqumli xarakterga egaligi sababli ularni ham shu o‘rinda tahlil qilishni lozim deb topdik. Ushbu kasalliklarning yuzaga kelishi va tarqalish sabablari sotsial gigiyena, yuqumli kasalliklar va boshqa ko‘pgina soha mutaxassislari tamonidan olib boriladi (2-rasm).



2-rasm. Aholining tanosil kasalliklar bilan kasallanishi

Surunkali tanosil (venerik) kasalligi zahm (sifilis) insonning barcha a'zo va sistemalarning zararlanishiga olib keluvchi kasalliklardan biridir. 1991-2020 yillar oralig'ida ushbu kasallik bilan og'riganlar miqdori O'zbekiston Respublikasida 3 barobarga ko'paygan. Agar 1991-yilda har 100 ming kishiga kasallanish 1,9 tani tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 6,0 ko'rsatkich qayd etildi. 1995-2000 yillar oralig'ida yurtimizda kasallanishning eng yuqori darajasi qayd etilgan (1995-yil 25,4, 2000-yilda 30,4)[8]. Bunday holat XXI asr boshlarida aksariyat sobiq Ittifoq davlatlarida ham kuzatilgan edi.

So'nggi yillarda zahm bilan kasallanish darajasi pasaygan. Sirdaryo (13,4), Toshkent (13,4) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (11,7) ko'rsatkichlari respublikamizda yuqori bo'lsa, Qashqadaryo (1,3), Jizzax (2,1) va Andijon (2,8)da kasallikka chalinganlar darajasi ancha past. 2020-yil ma'lumotlari O'zbekistonning 7 ta viloyatida (Qashqadaryo, Jizzax, Andijon, Farg'ona, Namangan Samarqand va Buxoro) umumrespublika ko'rsatkichlaridan past, qolgan ma'muriy birliklarda esa baland qiymat qayd etilgan (2-rasm qarang).

Bunday xastaliklar qadimda ham o'lkamizda mavjud bo'lgan. Chunonchi, Abu Ali ibn Sino asarlarida ushbu kasalliklarga ham ta'rif berilgan [1]. Manbalarda qayd etilishicha, bunday xastalikka uchragan kishilar toshbo'ron qilingan, omma orasida yurishga yo'l qo'yilmagan. Shu o'rinda aytish mumkinki, nafaqat zahm yoki so'zak bilan kasallangan kishilar, balki boshqa yuqumli xastaliklar vabo va o'lat singari kasallik bilan og'rigan kishilar bilan ham shunday munosabatlar olib borilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish, turli xil kasalliklar geografiyasini yoki nozogeografik vaziyatni taqqoslab ko'rar ekanmiz, O'rta Osiyo va boshqa qo'shni mamlakatlar orasida O'zbekiston Respublikasi o'ziga xos xususiyatlari bilan alohida ajralib turishining guvohi bo'lamiz. Masalan, qo'shni Qozog'iston uchun ko'proq brutsellyoz, exinokokk, o'pka sili, brutsellyoz singari xastaliklar xarakterli bo'lsa, bizning mamlakatimizda esa o't qopi, endemik bo'qoq, oshqozon va boshqa ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari keng uchraydi. Bu albatta, hududlarning tabiiy sharoiti, ekologik vaziyati va xo'jaligining ixtisoslashuvi kabi bir qancha omillar tufaylidir.

Adabiyotlar

1. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. J.1. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. -304 b.
2. Коренберг Э.И. Природная очаговость инфекций: современные проблемы и перспективы исследований // Зоол. Журн. 2010. Т.89.
3. Komilova N.K. Inson ekologiyasi va nozogeografik tadqiqotlar. Monografiya. T. «Zebo prints», 2023. -208 b.
4. Komilova N.K., Muxammedova N.J., Karshibayeva L.K., Egamqulov H.E. Nozoekologik vaziyat va aholi kasallanishining hududiy tahlili. Monografiya. -Guliston: «Nazokatxon ziyo print» 2023. -256 bet.
5. Равшанов А.Х. Нозогеографик вазиятнинг ҳудудий хусусиятлари (Самарқанд ва Навоий вилоятлари мисолида). География фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2020.
6. Komilova N.K., Muxammedova N. J. Tanatogeografiyaning nazariy va amaliy masalalari (aholi o'limining hududiy xususiyatlari). Monografiya. Navoiy: «Ishonchli hamkor», 2023. –132 bet.
7. Komilova N.K. Tibbiyot geografiyasi va global salomatlik. Darslik. Toshkent: "Yangi chirchiq book", 2023. -236 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari (1991-2021).
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlar.

SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC REPORTS**

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrirlar:

A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.
X. S. Haydarov - f.-m.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.06.2023-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 570. Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296

